



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### BO’LAJAK CHET TILI O’QITUVCHILARINING KASBIY KOPMETENTLIGINI ROVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Yusupov Rajab Rasul o’g’li**

*Fan va Texnologiyalar universiteti, Tilla  
kafedrasida ingliz tili o’qituvchi*

**Annotatsiya:** Bo’lajak chet tili o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim yo’nalishlaridan biridir. O’qituvchining kasbiy kompetentligi faqat tilni yaxshi bilish bilan cheklanmaydi, balki pedagogik bilimlar, o’qitish metodlari, talabalar bilan samarali muloqot o’rnatish, madaniyati va til o’rganish jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish kabi jihatlarni ham o’z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda chet tili o’qituvchilarini tayyorlashda mavjud metodik yondashuvlar tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo’yicha takliflar ilgari surilgan. Shuningdek, pedagogik ta’limda zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash, o’qitish jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo’llash, o’qituvchilarda reflektiv fikrlashni rivojlantirish kabi muhim jihatlar ko’rib chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** Kasbiy kompetentlik, chet tili o’qituvchisi, pedagogik bilim, innovatsion metodlar, o’qitish metodikasi.

**Bo’lajak chet tili o’qituvchilarining kasbiy** kompetentlik tushunchasi, pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonida eng yuqori natijalarga erishish, yuqori kasbiy salohiyatga ega bo’lish, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga egallikni anglatadi.

Ta’lim va tarbiya jarayoni o’sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablariga mos ravishda hayotga tayyorlashni o’z ichiga oladi. Yoshlar, avlodlardan meros bo’lib kelgan bilim, odob, madaniyat, mehnat ko’nikmalarini o’zlashtirib, jamiyatda munosib o’rnini topishi kerak. Bu jarayonda pedagogning kasbiy mahorati va shaxsiyati juda katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, ta’lim jarayonida yoshlarda davr talablariga mos ravishda yangi masalalar va muammolarni hal etish uchun zarur sifatlarni rivojlantirish pedagogning asosiy vazifalaridan biridir. Buning uchun pedagog o’zining bilimlarini yangilab borishi, mehnat va hayot sharoitlaridagi o’zgarishlarga mos ravishda ijodiy faoliyat bilan shug’ullana olish qobiliyatiga ega bo’lishi zarur.

Bo’lajak o’qituvchilardan talab qilinadigan kompetentlik quyidagi jihatlarni o’z ichiga oladi:

- O’z bilimini doimiy ravishda yangilab borish, malakalarini takomillashtirish va zamonaviy yangiliklardan xabardor bo’lish;
- Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, informatsion texnologiyalar va o’qitish vositalarini samarali qo’llay olish;





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- Mustaqil faoliyat, fikrlash, maqsad qo'yish, o'quv adabiyotlaridan va qo'shimcha manbalardan to'g'ri foydalanish;
- O'z harakatlari uchun javobgarlikni his qilish va tashabbuskorlikni namoyon etish;
- Tanqidiy fikrlash va dars jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni ijobjiy hal etish qobiliyati;
- Hamkorlik, bir-birini tushunish, empatiya, hurmat va ishonchga asoslangan pedagogik muloqotni o'rnata olish;
- Chuqur kasbiy bilimga ega bo'lish[1]

Bo'lajak til o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, uning ta'lim va tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishishini ta'minlash uchun zaruriy qadamlarni o'z ichiga oladi. Bu kompetensiya o'qituvchining kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilishi lozim:

1. **Tilni o'rgatish metodikasiga oid bilimlar:** Bo'lajak til o'qituvchisi, til o'rgatishning turli metod va usullarini o'zlashtirishi kerak. Bu, tilni o'rgatish jarayonida qanday metodlarni qo'llash, o'quvchilarni til o'rganishga qiziqtirish va ularning tilni samarali o'zlashtirishiga yordam berishga qaratilgan bilimlar va ko'nikmalardir.

2. **Pedagogik texnologiyalarni qo'llash:** Zamонавиy pedagogik texnologiyalar va o'qitish vositalarini (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia, onlayn platformalar) ishlatish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshiradi. O'qituvchi texnologiyalarni pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

3. **Lingvistik va madaniy bilimlar:** Til o'qituvchisi o'rganayotgan tilning nafaqat grammatikasi, balki madaniyati, urf-odatlari, adabiyoti haqida ham chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. Bu, o'quvchilarga tilni to'liq va real hayotda qanday ishlatishni o'rgatishda muhimdir.

4. **Komunikativ kompetensiya:** Til o'qituvchisi o'quvchilari bilan samarali muloqot o'rнata olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ishonchli va samarali aloqani ta'minlash, o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishlariga imkon yaratish uchun zarurdir.

5. **Differensial yondashuv:** Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim berish qobiliyati bo'lajak til o'qituvchisi uchun zarur. Buning uchun o'qituvchi turli darajadagi o'quvchilar bilan ishlashda moslashuvchan va yaratishchan bo'lishi kerak.

6. **Shaxsiy o'sish va o'qituvchining professional rivoji:** O'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishga, yangi bilimlarni o'rganishga, kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan faoliyatlar muhimdir. Shuningdek, u o'z kasbiy faoliyatini doimiy ravishda baholash, yangiliklarga ochiq bo'lish va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

7. **Axborot va madaniy kontekstda mustaqil fikrlash:** Bo'lajak til o'qituvchisi axborot va madaniy kontekstga asoslanib, o'quvchilarga til o'rganishning amaliyotdagি





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ahamiyatini tushuntirishda va ular bilan muhokama qilishda yetarlicha mahoratga ega bo’lishi kerak.

### Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun ba’zi metodlar:

- **Pedagogik amaliyotlar:** Bo’lajak o’qituvchilarni pedagogik amaliyotlarga jalb qilish, real sinf sharoitida tajriba orttirishga yordam beradi.
- **Seminarlarda qatnashish:** Professional seminarlar, konferensiyalar va treninglar orqali yangi pedagogik bilimlarni o’rganish va o’z ko’nikmalarini rivojlantirish.
- **Mentorlik va hamkorlik:** Tajribali o’qituvchilar bilan mentorlik tizimlari orqali o’rgatish va o’zaro tajriba almashish.
- **Innovatsion texnologiyalardan foydalanish:** O’qituvchining o’qitish usullarini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish, yangi o’qitish dasturlari va platformalaridan foydalanish[2]

Bo’lajak til o’qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy maqsadi, uning o’quvchilarga yuqori sifatli ta’lim berish, samarali va ijobiy natijalarga erishishdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M.A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnoogiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o’qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o’quv qo’llanma) - T. 2017
2. Urinova F. A., Usmonova S. Y. Q. IN CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM HUMANISTIC CHARAKTERISTICS OF PARTNERSHIP PEDOGOGY //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019

